



BIR G'AZAL TAHLILI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI AKADEMIK
LITSEYI ONA TILI VA ADABIYOT KAFEDRASI O'QITUVCHISI
XAKIMOVA SHAPOAT PAZLIDINOVNA

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda yoshlarimizga milliy ma'naviyatni singdirish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Jumladan, o'tmish ajdodlarimizning asarlarini o'qib tushunishga, ularning mazmun - mohiyatini o'zlashtirishga o'rgatish yosh avlod ongida milliy qadriyatlarni rivojlantiradi. Shu maqsadda Sakkokiyning bir g'azalini tahliliga qo'l urdik.

Kalit so'zlar: Husn ganji, zulf, ag'yor, do'l, guharbor, chavgon, yanoq, nor.

Mumtoz adabiyotining yetakchi va ustuvor uslubi, yo'nalishi bu nazm sanalgan. Mumtoz shuaro aruz vazniga va devonlar tarkibiga katta e'tibor qaratganlar.

Sakkokiy meros qoldirgan g'azallarning bosh mavzusi sof va samimiy ishq tarannumi hisoblanadi, chunki shoir o'z she'rlarida asosan falsafiy yoki ilohiy ishqni emas, insoniy ishqni kuylaydilar.

*Ey husn ganji . bu zaif
ko'nglumni vayron aylama .
Yuz uzra zulfing tog'itib
umrim parishon aylama .*

*Har nokase husn yuzina
xush toza gul yanglig' kulib .
Bag'rimni har dam g'unchadek
hasrat bila qon aylama .*

*Nordek yangoqing shu lasin
sen ko'rguzib ag'yorg'a .
G'ayrat o'ti ichra yana
bag'rimni biron aylama .*

*Barcha xaloyiq to'p bikin
tashlar oyoqing iza bosh .
Bu ishda zulfing dol erur .
sen oni chovgon aylama .*

غزل سكاكي

*Bo'lsa qiyomat barchadan
qilg'on ishin so'rg'usidur .
Oz qil jafou javrni
muncha farovon aylama .*

*Zulmu sitamni zulfingu
kofir ko'zingga o'gratib .
Bu keng jahonni sen menga
bir tor zindon aylama .*

*Ey minju tishlik dilbarim .
la'li guharboring haqi .
Sakkokiyning ikki ko'zin
har lahza ummon aylama .*



Aylama radifli g'azali

*Ey husn ganji, bu zaif ko'nglumni vayron aylama,
Yuz uzra zulfing tozg'itib umrim parishon aylama.*

Sakkokiy radifga “aylama” so’zini olish bilan butun g’azalni amr-u nahiyya sa’natini ustiga qurilishga erishgan. Va bu sa’natga yonma yon “ey husn ganji” deb nido sa’natini ham hosil qilganki, bu bilan g’azal ohang va mazmun jihatidan yana –da zalvorliroq shaklga kelgan.

Ikkinchi misrada sochini tozg’itib umrini parishon etmasligiga buyuradi va bu bilan zimdan sochini parishon ekaniga ishora qilganligi oydinlashadi.

*Har nokase husn yuzini hush toza gul yanlig’ kulib ,
Bag’rimni har dam g’unchadek hasrat bila qon aylama.*

Bu baytda ikki bora tashbih qo’llangan: biri –ma’shuqning o’zgalarga gul yanlig’ kulishi va ikkinchisi esa oshiqning ko’nglini g’unchadek qon qilishi bilan tasvir etiladi.

*Nordek yanoqing shu’lasin sen ko’rguzib agyorg’a,
G’ayrat o’ti ichra yana bag’rimi bir yon aylama.*

Anordek yanog’ini jilvasiga o’zga ag’yorlarning ham oshiq ekanini sezgan Sakkokiy yorini bu ishdan qaytaradi va qalbidagi ishq o’tini yana eslatadi.

Sa’natlardan tanosib ham istifoda etilganki u bag’ir va yanoq so’zlarida aks etadi. Hamda o’t shu’la so’zlarida ham tanosib sa’natiga guvoh bo’lish mumkin. Demak baytda shoir tanosub sa’natini ikki marta ishlatganligini ko’ramiz.

Barcha xaloyiq to’p bikin tashlar oyoqing iza bosh



Bu ishda zulfiging dol erur se noni chovgon aylama.

Xaloyiqning yorga oshiqqligini va yorning ularga ko'rsatadigan munosabatlarni xuddi yosh qizlar to'p-u chovgon bilan o'ynaydigan o'yinlariga muqoyasa etadi. Albatta diqqat qilinsa tamsil san'ati hosil bo'lganini anglash mumkin bo'ladi va baytda xaloyiqning boshi-yu yorning oyog'i ham eslatiladi, bu o'rinda tazod san'ati yuzaga keladi. Shu bilan birga shoir yorning zulfini dolga qiyos etadi va adabiyotda kitobat nomin olgan san'atni qo'llaydi. Unga binoan arab xalqlari biror narsaga o'xshashi kerak va bunda yorning zulfi shoirga qo'l keladi. Va un idol harfiga o'xshatadi va chavgon qilmasligini so'raydi.

*Bo'lsa qiyomat barchadan qilg'on ishin so'rg'usidur,
Oz qil jafo u jabrni muncha farovon aylama*

Bu baytda shoir yorga dunyoning o'tkinchi ekanini oldinda ohirat turganini shunga muvofiq endi jabr u jafoni ozaytirish kerakligini eslatadi. Zotan uni so'rovchisi ham borligini ta'kidlaydi. Va oz qilmoq bilan farovon aylamoq o'zaro zid ma'no anglatgani uchun unda tazod sa'natini ham hosil qiladi.

*Zulmu sitamni zulfiging kofir ko'zingga o'rgatib
Bu keng jahonni sen menga bir tor zindon aylama*

Sakkokiy bu baytda yorning ko'ziga kofir sifatini ham qo'shadilar, chunki yorning ko'zlari sehr qilib oshiq qilishida ham o'ziga o'rgatib qo'yib keyin azob berishda ham kofirdan ortiq bo'lsa ortiqki kam emas.

Yana bu keng jahonni tor zindon qilmasligini o'tinadi, va bu o'rinda ham tazod sa'nati yuzaga keladi.



Ey inju tishlik dilbarim la'li gavharboring haqi
Sakkokiyning ikki ko'zin har lahza ummon aylama

G'azal maqtasiga kelganda Sakkokiy yorga yana bir bor nido qiladilar va uning inju tishlari bilan qizil lablariga e'tiborini qaratadilar va ularning nomi haqqi mani yig'latib ikki ko'zimni ummon qilmagin deb iltijo qiladilar.

Bu baytda tanosub sa'nati ham bor. Yorning tishlari-yu lablari va oshiqning ikki ko'zlari inson a'zolari sifatida bir uyaga birlashadi va tanosubni hosil qiladi.

Sakkokiy g'azallari va qasidalarini o'qib tahlil qilsak shunga iqrор bo'lamizki, hazratning badiiyat olamidagi she'riyat dunyosifagi mahoratlari va istedodlari tahsinga loyiq. Sakkokiy she'rlari Temuriylar davrining eng sara va go'zal she'riyatiga munosib namuna va ko'zgu bo'la oladi.

Sakkokiy qasida va g'azallarida kamchilik shoirlar payqagan insoniy tuyg'u va hissiyotlar tasvir etilganki shuning uchun ham ulug' shoirning she'rlari necha zamonlar o'tsa hamki insonlarning qalblarida o'lmas bo'lib kelyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hotam Umurovning "Adabiyot qoidalari" kitobi. "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent, 2002-yil.
2. Anvar Hojiahmedovning "Mumtoz badiiyat malohati" kitobi. "Sharq" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2016-yil.
3. Boqijon To'xliyevning "Adabiyot" kitobi. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2016-yil.
4. "Ma'naviyat yulduzlari" kitobi. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999-yil.